



O'SMIRLARDA YOLG'ON VA MANIPULYATSIYANING SHAKLLANISHIDA NEYROKOGNITIV, IJTIMOIIY VA MOTIVATSION OMILLARNING PSIXOLOGIK ASOSLARI

Panjiyeva Iroda Xayitovna

Nizomiy nomidagi O'zbekiston Milliy Pedagogika universiteti, “Pedagogika-psixologiya va inklyuziv ta’lim” fakulteti, “Amaliy psixologiya” ta’lim yo’nalishi, 4-bosqich talabasi

Annotatsiya: *O’smirlarda yolg’on va manipulyatsiya xatti-harakati murakkab psixologik hodisa bo’lib, unda neyrokognitiv, ijtimoiy va motivatsion omillar o‘zaro ta’sir qiladi. Ushbu maqola yoshlarda yolg’onning shakllanish mexanizmlari va motivlarini o‘rganadi, xususan, ijroiyl nazorat, xotira, diqqat, hissiy nazorat, tengdoshlar ta’siri va shaxsiy motivatsiyaning yolg’on va manipulyatsiyaga qanday ta’sir qilishi tahlil qilinadi. Tadqiqot shuningdek, yolg’onni aniqlash, oldini olish va axloqiy rivojlanishni rag‘batlantirish bo’yicha amaliy strategiyalarni ham ko‘rib chiqadi. Ushbu mexanizmlarni tushunish psixologlar, pedagoglar, ota-onalar va siyosatchilar uchun yoshlarda halollikni rivojlantirish, ijtimoiy munosabatlarni yaxshilash va yolg’onning salbiy oqibatlarini kamaytirish imkonini beradi.*

Kalit so'zlar: *o’smirlarda yolg’on, manipulyatsiya, neyrokognitiv omillar, ijtimoiy omillar, motivatsion omillar, psixologik tahlil.*

Kirish

“Yolg’on insoniyat tarixida har doim mavjud bo’lgan va ijtimoiy aloqalarda muhim rol o‘ynagan xatti-harakatdir” (Ekman, 2009). Aristotel ham aytganidek, axloqiy qarorlar va ijtimoiy me’yorlar yolg’on bilan bog‘liq bo’lishi mumkin va insonning shaxsiy hamda ijtimoiy hayotiga ta’sir qiladi. Kant esa yolg’onni axloqiy jihatdan noto‘g‘ri deb hisoblagan va uni jamiyatdagi ishonch tizimini buzuvchi kuch sifatida ta’riflagan. Shu nuqtai nazardan qaraganda, yolg’onning shaxsiy, ijtimoiy va motivatsion omillarini o‘rganish zarur. O’smirlarda yolg’on va manipulyatsiya ko‘pincha neyrokognitiv jarayonlar (ijroiyl nazorat, xotira, diqqat), ijtimoiy ta’sirlar (tengdoshlar, oilaviy muhit, madaniy normalar) va motivatsion omillar (o‘zini himoya qilish, ijtimoiy foyda olish) orqali shakllanadi. Ushbu hodisalar yoshlarda axloqiy qaror qabul qilish, ijtimoiy moslashuv va shaxsiy rivojlanishga ta’sir ko‘rsatadi.

Ushbu maqolada quyidagi muammolar ko‘rib chiqiladi:

- O’smirlarda yolg’on va manipulyatsiyaning shakllanish mexanizmlari;
- Neyrokognitiv, ijtimoiy va motivatsion omillarining roli;
- Yolg’onni aniqlash va oldini olish strategiyalari;
- Axloqiy rivojlanish va shaxsiy hamda ijtimoiy oqibatlar.

Maqolaning maqsadli auditoriyasi — psixologlar, pedagoglar, ota-onalar va siyosatchilar, ya’ni yoshlarning psixologik rivojlanishi, axloqiy tarbiyasi va ijtimoiy



moslashuvini yaxshilashga qiziqqan mutaxassislar. Tadqiqot natijalari yoshlarda halollikni rag‘batlantirish, ijtimoiy munosabatlarni yaxshilash va yolg‘onning salbiy oqibatlarini kamaytirishga yordam beradi.

Asosiy qism

Yolg‘on va manipulyatsiya — inson xulq-atvorining murakkab va ko‘p qirrali shakli bo‘lib, ayniqsa o‘smirlar bosqichida sezilarli darajada uchraydi. Pol Ekmaning “Yolg‘on psixologiyasi” asarida ta’kidlanishicha, yolg‘on — ataylab boshqalarni chalg‘itish uchun qilingan xatti-harakat bo‘lib, uni nafaqat so‘z orqali, balki yuz ifodalari va tana tilida ham aniqlash mumkin. Ekman inson yuzidagi mikro-ifodalarning yolg‘on holatida sezilarli o‘zgarishini tadqiq etgan bo‘lib, bu yo‘l bilan yolg‘onni aniqlashda yuqori ilmiy aniqlikka erishish mumkinligini ko‘rsatadi. O‘smirlarda yolg‘on va manipulyatsiya kognitiv darajada ham murakkab jarayonlar talab etadi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, yolg‘on qilgan vaqtida miya ishlashi ya’ni bilish jarayonlari — xotira, diqqat, hissiy nazorat va ijroiylar funksiyalar — faol bo‘ladi. Masalan, nevropsixologik sinovlarda “cognitive flexibility” (muammolarni turli yo‘llar bilan yecha olish) yuqori bo‘lgan o‘smirlarning ba’zilarining yolg‘on qilish chastotasi ham yuqori bo‘lishi aniqlangan. Bu ularning yolg‘onni rejalashtirish va boshqarishdagi qobiliyatlari bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Ekmaning asosiy kontsepsiyalaridan biri shundaki, mikroifodalar va yuz muskullarining kichik signallari yolg‘on holatida seziladi, chunki o‘smirlar uyatchanlik, stress yoki ichki konfliktni yashirmoqchi bo‘lishadi. Shuning uchun nevropsixologik tadqiqotlarda diqqatni boshqarish va hissiy nazoratni o‘rgatish, masalan, strategik o‘yinlar yoki hissiy refleksiya mashqlari orqali kuchaytirish yolg‘on xatti-harakatlarini kamaytirishga yordam beradi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, o‘smirlar yolg‘on aytish chastotasining o‘sishida impulsivlikning muhim roli mavjud: impulsiv odatlar yuqori bo‘lgan yoshlar ko‘proq yolg‘on aytishga moyil bo‘lib, bu xatti-harakat vaqt o‘tishi bilan turli ijtimoiy kontekstlarda kuzatiladi — masalan ota-ona, do‘st yoki o‘qituvchiga qarshi yolg‘onlar ham shu impulsivlik bilan bog‘liq ekanligi aniqlangan. O‘smirlar orasida yolg‘on xatti-harakati faqat bir xil yo‘nalishda emas — u turli «profil»larga ega: masalan, ko‘pchilik juda kam yolg‘on gapiradi, lekin kichik bir guruh (taxminan 5% dan kam) juda yuqori chastotada yolg‘on aytadi. Ularning psixologik holati (depressiya, ijtimoiy bezovtalik) va oilaviy munosabatlar sifati bu guruhlarini ajratib turadi. Tadqiqotchilar yolg‘onni axloqiy rivojlanish va mustaqillikka erishish strategiyasi sifatida ham ko‘rishadi. “Cambridge Handbook of Parental Monitoring and Information Management” tadqiqotida aytilishicha, o‘smirlar ota-onalar bilan munosabatda yolg‘onni faqat salbiy xulq emas, balki mustaqillik talabining bir qismi sifatida ishlatadi. Bu yolg‘onlar ko‘pincha ota-onalar hukmronligidan chekinish va shaxsiy chegarani himoya qilish strategiyasi sifatida paydo bo‘ladi. Bundan tashqari, yolg‘onning o‘ziga xos “ijtimoiy funksiyalari” ham borligi ilmiy tadqiqotlar bilan tasdiqlangan. Masalan, rivojlanish psixologiyasi bo‘yicha o‘tkazilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, o‘smirlar “ijobiy maqsadli yolg‘onlarni” (masalan, do‘stning his-tuyg‘ularini saqlab qolish uchun aytiladigan kichik yolg‘on) ijtimoiy munosabatni saqlash va konfliktni oldini olish vositasi sifatida ishlatadi. Bu esa yolg‘onni faqat salbiy deb qaramaslik kerakligini ko‘rsatadi — uning ijtimoiy moslashuvdagi roli ham mavjud. Ushbu ilmiy natijalar asosida o‘smirlar yolg‘on va



manipulyatsiya bilan bog‘liq xatti-harakatlarni tahlil qilishda neyrokognitiv va ijtimoiy omillar bilan cheklanmaydi- motivatsion omillar ham juda katta rol o‘ynaydi. DePaulo va Kirkendolning “Motivation Impairment Effect” nazariyasiga ko‘ra, yuqori motivatsiyaga ega bo‘lgan yolg‘onchilar aslida yolg‘onni yanada ko‘proq sezdiradigan noverbal signallarni ko‘rsatadi. Bu shuni anglatadiki, ichki motivatsiya kuchli bo‘lgan o‘smirlar yolg‘onni yashirishda qiyinchiliklarga duch keladi, chunki stress belgilari ko‘proq namoyon bo‘ladi. Masalan, impulsivlik yuqori bo‘lgan, oilaviy qo‘llab-quvvatlash past bo‘lgan va depressiv belgilari yuqori bo‘lgan o‘smirlarda yolg‘on qiluvchi obraz yuqori profilda bo‘lishi mumkin, bu esa psixologik farovonlik va o‘zini tiklash resurslariga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi. Bu esa psixologik jihatdan shuni ko‘rsatadiki, yolg‘on qiluvchi motivatsiyani o‘rganish yolg‘onning ijtimoiy va psixologik kontekstini yaxshiroq tushunishga yordam beradi. Tavsiya sifatida ilmiy amaliyotchilar — psixologlar, pedagoglar va ota-onalar — yoshlarning yolg‘on xatti-harakatlarini kamaytirish va ularni to‘g‘ri yo‘naltirish uchun quyidagilarni amalga oshirishi mumkin:

- ☐ Neyrokognitiv funksiyalarni rivojlantirish uchun diqqat va ijroiyl nazorat mashqlarini qo‘llash.
- ☐ Oilaviy muloqotni oshirish va ishonch muhitini yaratish orqali yoshlarning ochiqqligini rag‘batlantirish.
- ☐ Yoshlarga ijtimoiy vaziyatlarda halollik va axloqiy qaror qabul qilish bo‘yicha ta‘lim berish.

Bu jahon tadqiqotlari asosida olingan ilmiy dalillar o‘smirlarda yolg‘on va manipulyatsiyaning shakllanishini chuqurroq tushunishga yordam beradi va ilmiy asoslangan strategiyalar ishlab chiqishga yo‘l ochadi.

Xulosa

O‘smirlarda yolg‘on va manipulyatsiya xatti-harakati neyrokognitiv, ijtimoiy va motivatsion omillar bilan bevosita bog‘liq. Pol Ekman va boshqa jahon tadqiqotlari shuni ko‘rsatadiki, yolg‘on faqat shaxsiy xatti-harakat emas, balki oilaviy muhit, tengdoshlar ta‘siri va ichki motivatsiya bilan shakllanadi. Amaliy nuqtai nazardan, neyrokognitiv mashqlar, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash va motivatsion yondashuvlar o‘smirlarni yolg‘ondan saqlash va ularni halollik va axloqiy qarorlar sari yo‘naltirishda samarali vosita hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ekman, P. (2001). Telling Lies: Clues to Deceit in the Marketplace, Politics, and Marriage. New York: W.W. Norton & Company.
2. Ekman, P., & O’Sullivan, M. (2006). Why Kids Lie: How Parents Can Encourage Truthfulness. New York: Times Books.
3. Vrij, A. (2008). Detecting Lies and Deceit: Pitfalls and Opportunities. Chichester: John Wiley & Sons.
4. O’Sullivan, M., Frank, M. G., & Ekman, P. (2006). The Wizard Project: Developing True Lie Detectors. Journal of Nonverbal Behavior, 30(1), 1–22.



5. DePaulo, B. M., & Kirkendol, S. E. (1989). The Motivational Impairment Effect in Deception. *Journal of Nonverbal Behavior*, 13(4), 235–248.